
Quvaytlik investorlar bilan hamkorlik memorandumi imzolandi

“Farg’ona-vodiy gavhari. Investisiya va turizm istiqbollari” mavzusida bo’lib o’tayotgan xalqaro forum doirasida Qo’shtepa tumani hokimining o’rinbosari, tuman investisiyalar va tashqi savdo bo’limi boshlig’i Baxtiyorjon Taniqulov Quvaytlik investor Tayser Al Hasan bilan farm sanoat yo’nalishida hamkorlik qilish maqsadida uchrashuv o’tkazdi.

Uchrashuv davomida tumandagi “Med farm” MCHJ bilan hamkorlik qilish masalalari muhokama qilindi hamda mazkur loyihani amalga oshirish bo’yicha hamkorlik memorandumi imzolanib, 1 million dollarlik shartnoma tuzish rejalashtirildi.





2024-10-18 15:00:32